



OHUNJONOV SOBIRJON SOBIROVICH HAYOT YO'LI

Abdurazzoq Radjabov

QK davlat muzey ilmiy xodim

AIFU magistratura talabasi

Annotatiya:

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi qatnashuvchisi Oxunjonov Sobir Sobirovichning urush vaqti va urushdan keyingi hayotiy faoliyati haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oxunjonov Sobir Sobirovich, ikkinchi jahon urushi, Front, medal, orden.

Ключевые слова: Охунжонов Собир Собирович, иккинчи жаҳон уруши,



Фронт, медал, орден.

Keywords : Okhunjanov Sabir Sobirovich, World War II, Front, medal, order.

Insoniyat XX asrning ikkinchi choragida boshidan jahon urushini o'tkazdi. Bu urushga 61 ta davlat qatnashgan bo'lib jami jahon aholisining 80 foizi yani 110 mlni qatnashgan. O'zbek xalqi ham o'sha vaqtda Sobiq Sovet davlat tarkibida bo'lib, nemis fashizmga qarshi kurashishga o'z mard o'g'lonlarni jo'natdi. O'zbekistonda urushdan oldin 6 mln 551 mingdan ortiq aholisi bo'lib, shulardan 1 mln 950 ming 700 nafari urushda ishtirok etgan. Bu urushda qatnashgan va halok bo'lgan bo'lgan, front ortida mehnat qilgan faxriy insonlarni nomini e'zozlash lozim. Shunday qahramonlar biri Ohunjonov Sobirjon Sobirovich. Ushbu maqolada Ohunjonov Sobirjon Sobirovichning hayotiy faoliyati yoritilgan. Ohunjonov Sobirjon Sobirovich 1919 – yil 10 –oktyabr kuni Toshkentda tug'ilgan Sobirjon Sobirovich o'z davrining eng zo'r ilg'or bilimli mutahasis bo'lish maqsadida 1940-yil V.I.Lenin nomidagi Toshkent Qizil nishon harbiy bilim yurtini, urushdan keyin 1955-yil M.V.Frunze



nomidagi harbiy akademiyani, 1966-yil Fargʻona davlat pedagogika institutini (sirdan) tamomlagan. Oʻqishni tamomlab urushgacha Fargʻona va Toshkent viloyati, Boysun tumani hamda Toshkent shahar Xalq deputatligi kengashi deputati, shuningdek, keyinchalik ushbu hududlarda Oʻzbekiston Kompartiyasi tuman qoʻmitasi aʼzosi sifatida ish faoliyatini olib borgan. Urush davridagi janglarda ikki karra yaralangan va miya chayqalishini orttirgan.

Ulugʻ Vatan urushi boshlangach 1941-yil 3-avgustdan Janubi – Gʻarbiy frontning alohida otryadiga kiruvchi 1-oʻqchi polk tarkibida leytenant lavozimida xizmat oʻtashni boshlagan. 1941-yilning sentabr oʻrtalarida Kiyev mudofaasi vaqtida engil jarohatlanadi va harbiy dala shifoxonasiga yuboriladi. Ayni shu yilning dekabridan 1942-yil yanvarigacha Xarkov piyoda askarlar bilim yurti kursantlariga qoʻmondonlik qilgan, Oʻrta Osiyo harbiy okrugi (OʻzSSR Namangan shahri) — katta leytenant unvonini olgan.

1942-yil yanvar oyidan OʻzSSR Fargʻona shahrida shakllangan 94-alohida oʻqchi qoʻshilmasida avtomatchilarning alohida boʻlinmasiga boshchilik qilgan. 1942-yil avgustdan harbiy qoʻshilma Moskva mudofaasi uchun Babushkino shahriga yuboriladi va Moskva mudofaa chegarasining 3-gvardiya armiyasi tarkibidan joy oladi. S.S.Ohunjonov kapitan lavozimini olib, shtab qoʻshilmasining 1-boʻlimida boshliq yordmachisi etib saylanadi.

1942-yil oktyabrda 94-alohida qoʻshilma Stalingrad frontining 21-armiya tarkibiga qoʻshiladi va Stalingrad shahri mudofaasi uchun qonli janglarda qatnashadi. 1942-yil noyabrda mazkur qoʻshilma tarkibida S.S.Ohunjonov Serafimovich shahrida Don daryosi uchun Paulyusa boshchiligidagi nemis-fashist askarlar guruhi boʻlimish dushman hujumiga qarshi mudofaada qatnashadi.

1943-yil yanvar oyidan avgust oyigacha kapitan S.S.Ohunjonov Janubiy-Gʻarbiy front tarkibida 3-gvardiya armiyasi oʻqchi shtab boshqaruvida komendant boʻlib xizmat qiladi va Morozovsk-Salivanovsk, Ilino, Pervomaysk stanitsalari hamda



Glubokiy, Kamensk, Voroshilovgrad, Lisichansk shaharlarini ozod etish janglarida qatnashgan.

1943-yil avgustdan 1944-yil aprelgacha kapitan S.S.Ohunjonov 3-gvardiya armiyasining shtab bo‘limi tezkor bo‘linmasida boshliq yordamchisi bo‘lib xizmat qiladi. Jangda u Donbass, Gorlovka, Artyomovsk, Konstantinovsk, Slavyansk, Kramatorsk, Krasnoarmeysklarni ozod etish uchun qatnashgan kapitan. S.S.Ohunjonov 1943-yilning oktabrida harbiy harakatlar vaqtida ko‘rsatgan xizmatlari uchun Qizil Mehnat nishoni ordeni bilan mukofotlanadi.

1945-yilning martida jangovor vazifalarni namunaviy bajarganligi, shu bilan birga, ko‘rsatgan qahramonlik va mardonavorliklari uchun gvardiya mayori S.S.Ohunjonov Qizil Mehnat nishoni ordeni bilan taqdirlangan. Shu yilning iyunida mayor S.S.Ohunjonov ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan jasoratlari va xizmatlari uchun Hukumatning I-darajali ordeni bilan mukofotlangan.

Ohunjonov Sobirjon Sobirovichning ko‘rsatgan jasorati va fidoyi mehnatlari uchun 7 ta davlat ordenlari va SSSRning 18 dan ortiq medali, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasi va Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasining 10 medali bilan taqdirlandi. Ulug‘ Vatan urushi davrida oliy darajali Bosh qo‘mondonining 20 karra minnatdorchiligiga ega bo‘lgan. O‘zSSR Oliy Kengashi Rayosatining 10 ta diplomiga sazovor bo‘lgan.

S.S.Ohunjonov tomonidan o‘zining boy hayotiy tajribalarni yoshlarga etkazish meros qoldirish maqsadida quyidagi kitoblar chop etilgan:

1. Tabiiy ofatlarga qarshi kurash — umumxalq ishi (Toshkent, 1978).
2. O‘zbek SSRining fuqaro muhofazasiga — 50 yil (Toshkent, 1982).
3. Fuqaro muhofazasi tizimida sanitariya yordami bo‘limi (Toshkent, 1982).
4. O‘zbekistonning hozirgi bosqichida fuqaro muhofazasi (Toshkent, 1983).
5. Sovet xalqining 1941—1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushidagi g‘alabasining jahon-tarixiy ahamiyati. (Toshkent, 1985).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. QK Davlat muzeyida saqlanyotgan arxiv hujjatlari 12,19- jildlardan olingan.